



Uzbekiston Respublikasi maktabgacha
va maktab ta'limi vazirligi

_____ hokimligi

Maktabgacha va maktab ta'limi

tasarrufidagi

_____ maktabgacha va
maktab ta'limi tasarrufidagi

_____ -maktabgacha ta'lim tashkiloti

katta guruh ta'limi

_____ ning
takomillashtirilgan "Ilm va
davlat o'quv dasturi uchun
_____ asosida

"Navro'z –qadimiy xalq bayrami"
mavzusida tashkillangan

FAOLIYAT
ISHLANMASI

(Mart oyining 3-haftasi)



veb-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com veb-sayti orqali o'zingiz uchun kerakli ma'lumotlarni yuklab oling.

Zokirjon Admin bilan

91-328-88-38 nomerga telegram orqali bog'lanishingiz yoki telegramdan @jek567 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi. Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi.


Katta guruhlarga mart oyi 3-hafta faoliyat ishlanmani to'liq holda olish uchun telegramdan yozing.



Telegram kanalimiz:
@maktabgacha_tt

To'lov uchun: HUMO 9860230104973329

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Bu hujjatni hech kimga tarqatmaslik sharti bilan olishingiz mumkin.
Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To'liq holda olganingizdan so'ng:
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet veb-saytlarga joylamang.
Telegram orqali kanal va gruppalarga tarqatmang.

**OMONATGA HIYONAT
QILMANG.**

Guruh: Katta guruhlar uchun

Oy mavzusi: Bahor–mehr, tabiat va qadriyatlar fasli.

Hafta mavzusi: Navro‘z –qadimiy xalq bayrami

Ta’limiy faoliyat maqsadlari:

Ta’limiy: tarbiyalanuvchilarning Navro‘z bayrami haqidagi bilimlarini **boyi-** tish, ularning fikrini rivojlantirish;

Psixologik: bolalarning nutqini o‘stirish, tasavvurini kengaytirish, tarbiyalanuvchilarning fikrini erkin bayon qilishga o‘rgatish;

Tarbiyaviy: tarbiyalanuvchilarni milliy an’analarimizga hurmat ruhida tarbiyalash.

Kerakli jihozlar: Navro‘z bayramiga doir suratlar.

Ta’limiy faoliyatning sharti:

Tarbiyachi: - Assalom bolalarim, bugun qadrdon tarbiyalanuvchilarim. Bugungi ta’limiy faoliyatimiz Navro‘z bayrami haqida suhbatlashamiz, qiziqarli o‘yinlar o‘ynaymiz.

Bolalar, aytinglar-chi, Navro‘z bayrami nima bayrami?

Bolalar: - Navro‘z bayrami bahorda kelgan bolalar bayrami.

ASSALOM NAVRO‘Z!



Tarbiyachi: - Bolalar bahorda tabiat uygʻonadi, hammayoq yana qaytadan chi-roy ocha boshlaydi. Ana shunday goʻzal kunlarning birida Navroʻz, yaʼni yilboshi nishonlanadi. Fursatdan foydalanib, men sizlarga Oʻzbekiston Xalq shoiri Abdulla Oripovning Navroʻz haqidagi sheʼrini oʻqib bermoqchiman.

Avval yuragingga moʻralaydi u,
Soʻngra kelinglarga oʻrgatadi soʻz.
Zamin oʻrtasida qochadi uyqu,
Dasturxonida qochadi uyqu.
Kelmoqda Navroʻz!
Qishning aʼnigʻiga qochadi uyqu,
Yum-yum yoshlarning qochadi uyqu.
Jilva qilayotir tengsiz bahor uyqu,
Demak, Bahor keldi,
Kelmoqda Navroʻz!



Ona bagʻri kabi iliqdir olam,
Harir hovur ichra yayrar dala-tuz.
Qoldi puchmoqlarda xazon yangligʻ gʻam,
Demak, Bahor keldi,
Kelmoqda Navroʻz!



Yana koʻngillardan rutubat ketdi,
Yana shuʼlaldan qamashmoqda koʻz.
Yana dildorlikning fursati yetdi,
Demak, Bahor keldi,
Kelmoqda Navroʻz!

Tarbiyachi: - Borliq uygʻonib, tevarak-atrofning koʻm-koʻk libos kiyishi hammaning koʻngliga quvonch soladi. Navroʻz bayrami biz uchun tabiatning ustuvor qudrati va cheksiz saxovatining koʻp ming yillik urf-odatlarimizning betakror ifodasi boʻlib qolaveradi. Bolajonlar, kelinglar, hozir bahor bilan bogʻliq topishmoqlar aytaman, sizlar esa uning javobini topasizlar.

NAVRO'Z BAYRAMI



Gul ustida usta ashulachi. (Bulbul)

U tushganda dala-qir kuladi qiqir-qiqir. (Yoq)

Nur sochar o'tli yashar boqay desang ko'zlashmoqchi. (Nur)

O'zi qizil go'zal biram, qirga yozar go'zal gilam. (Malo)

Bahorda unib chiqdim, yam-yashil bo'lib chiqdim. (Malo)

Tarbiyachi: - Bolajonlar, endi esa sizlar bilan badantaniya va qiziqarli o'yinlar o'tkazish uchun "oq terakka ko'k terak" milliy o'yinini o'ynaymiz. Bu o'yinimizni o'ynash orqali ruhga bo'linib olishimiz kerak bo'ladi.

(Tarbiyachi nazoratida bolajonlar "oq terakmi ko'k terak" o'yinini o'ynaydilar)

Tarbiyachi: - Bolajonlar, sizning oilangizda Navro'z bayrami qanday nishonlanadi?

1-bola: - Biz hamma qarindoshlarni chaqirib katta qozonda sumalak qilamiz. Bayram kuni sumalak pishganda uni hammaga tarqatamiz.

2-bo!a: - Biz esa har gal bayramda saylgohga boramiz.

3-bola: - Biz esa bayram kuni tansiq taomlar pishiramiz. Uyimizga bobom va buvimni ko'rgani ko'p mehmonlar kelishadi.

4-bola: - Navro'z bayrami kuni dadam hammaga sovg'a ulashib chiqadilar.

Tarbiyachi: - Barakalla, Navro'z hammaning sevimli ayyomi hisoblanadi.

O'sha kunlarda hatto urush-janjallar to'xtatiladi, gina-kuduratlar unutiladi. Dasturxon bezatilib, bahoriy taomlar tayyorlanadi. Chor atrof tozalanib, obodonlashtirish ishlari olib boriladi. Bu bayram Bahoroyning bizga bergan eng chiroyli tuhfasidir. Bolajonlar, hammangiz uyda Navro'z mavzusida surat chizib kelinglar.

Qurish, konstruksionlash va matematika markazi

Sumalak tayyorlash

Maqsad: bolalarni namuna uchun kerakligini, o'zlaridagilarni tanlashni, mustaqil ravishda o'zlarini taqdim etishni, maxsus qutilardan o'zlarini taqdim etishni o'rganishadi.

Kerakli jihozlar va materiallar:

kubiklar, qozon ko'rinishidagi namuna, shakl, namuna va o'choq rasmlari.

Faoliyatning borishi:

1. Namuna va detallar bilan tanishib chiqish.
2. Kerakli materiallarni tanlash.
3. Mustaqil faoliyat.
4. Namuna bilan taqqoslash.

Qo'shimcha: o'choqning tagiga o'tinlarni solish. Mavzu asosida bolalar o'zlarini taqdim etishadi.

Alohida e'tibor qaratiladi: bolalarning kerakli hajmlarni tanlay olishi, vazifani bajarishda duch kelayotgan qiyinchiliklariga ahamiyat beriladi.

Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish markazi

Oshxona. Bayramona taomlar

Maqsad: bolalar tengdoshlari va oila a'zolariga o'z xohishlariga ko'ra yordam beradilar, atrofdagilarga xursandchilik ulashadilar, taomlar tayyorlash texnologiyasini biladilar, bayramona taomlarni nomlay oladilar.



Kerakli jihozlar va materiallar: fartuk, idish, oshxona anjomlari, oziq-ovqat mahsulotlarining muloyajlari.

Faoliyatning borishi:

1. Rollarni taqsimlash.
2. Uz xohishiga ko'ra o'yin uchun sharoit yaratish.
3. O'yinni rejalashtirish.
4. O'yin faoliyati


Qo'shimcha: salatini tayyorlash.

Alohida e'tibor: oshxona anjomlaridan to'g'ri foydalanish, tayyorlash texnologiyasini bilishiga ahamiyat beriladi.

Til va nutk ma

«Navro'z bayrami» mavzusi ostida suhbat va hikoya tuzish

Maqsad: bolalar milliy o'yinlaridagi harakatlarini boyitib boradilar, o'z hikoyasini aytib berish istakini bildirish, o'yinlarini oshiradilar, tovushlarni to'g'ri talaffuz qiladilar.





Kerakli jihozlar va materiallar: mavzuga oid rasm va kartochkalar.

Faoliyatning borishi:

1. Rasm va kartochkani ko'rish va muhokama qilish.
2. Rasm va kartochkani o'qib o'tish va o'zaro suhbat.
3. Hikoya tuzish.

Qo'shimcha: Navro'z bayrami haqida she'r o'qib berish.

Alohida e'tibor qaratiladi: bolalar Navro'z bayrami qachon va qay tarzda nishonlanishi haqidagi bilimga ega ekanligi muhokama qilinadi.

Fan va tabiat markazi

Tabiatda suvning o'rni

Maqsad: bolalar suvning xususiyatlari bilan tanishish, ularning «suv – insoniy hayot manbai» deb aytilimshni, suvning rangini, ta'mini o'zgarishi va boshqa xususiyatlarini o'tkazishni o'rganadilar.

Kerakli jihozlar va materiallar: AKT, stakan, suv, trubochka, turli xil rangli rangiloq.

Faoliyatning borishi:

1. Suvni idishlarga solish.
2. Idishdagi suvlarga turli xil ranglarni qo'shish orqali rangli suvlarni hosil qilish.
3. Tayyor rangli suvlardan yana boshqa ranglarni hosil qilish.
4. Xulosa chiqarish.

Qo'shimcha: she'r va hikoyalar o'qib berish.

Alohida e'tibor qaratiladi: bolalarda me'yor olish va chamalash malakalarining shakllanishi.

San'at markazi

«Navro'z»

Maqsad: bolalar bayram taassurotlarini qog'ozda aks ettirishga harakat qiladilar, ranglarni to'g'ri tanlashni o'rganadilar, rasmda bayram shukuhini bera oladilar.

Kerakli jihozlar va

materiallar: rangli bo'yoq, oq va rangli mavzuga oid rasmlar, namunalar.

Faoliyatning borishi:

1. Mavzuga oid rasmlarni ko'rsatish.
2. Namunaga qarab ishni rejalashtirish.
3. Kerakli jihozlarni tanlash.
4. Ijodiy faoliyat.

Qo'shimcha: «Navro'z sayli» mavzusida jamoa

Qurish va konstruksiyalash, matematika markazi

Supa

Maqsad: bolalar supa so'zning ma'nosini, supa kurishi o'rganadilar.

Kerakli jihozlar va materiallar: kubik, namuna, supa rasmlari.

Faoliyatning borishi:

1. Namunani kuzatish.
2. Kerakli jihozlarni tanlash.
3. Ijodiy ish.

Qo'shimcha: supani xontaxta va ko'rpachalar bilan boyitish.

Alohida e'tibor qaratiladi: qo'l ostidagi jihozlardan to'g'ri foydalanishga ahamiyat beriladi.

